Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, innovatsiya, texnologik modernizatsiya, innovatsion menejment, axborot tizimlar infratuzilmasi, tashkiliy javobgarlik, raqobat strategiyasi.

Abstract: In this article, the role of digital technologies in innovation management in the development of our country's economy was studied. The experiences of introducing innovative management in large industrial enterprises in industrially developed foreign countries were described. “Organizational responsibility and information technology”, “competitive strategy and information technology”, “competitive strategy”, “international relations and IT”, “information technology and ethics”, “modern “business management” general measures have been developed. Also, scientific and practical proposals were developed on the methodological basis for the effective introduction of innovative management through the development of digital transformations.

Key words: digital transformation, innovation, technological modernization, innovative management, information systems infrastructure, organizational responsibility, competitive strategy.

Аннотация: В данной статье изучена роль цифровых технологий в инновационном управлении в развитии экономики нашей страны. Описан опыт внедрения инновационного менеджмента на крупных промышленных предприятиях промышленно развитых зарубежных стран. Разработаны общие меры “Организационная ответственность и информационные технологии”, “Конкурентная стратегия и информационные технологии”, “Конкурентная стратегия”, “Международные отношения и информационные технологии”, “Информационные технологии и этика”, “Современное управление бизнесом”. Также разработаны научно-практические предложения по методологической основе эффективного внедрения инновационного управления посредством развития цифровых преобразований.

Ключевые слова: цифровая трансформация, инновации, технологическая модернизация, инновационный менеджмент, инфраструктура информационных систем, организационная ответственность, конкурентная стратегия.

KIRISH

Bilamizki, dunyo tez suratda o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlar ilm-fan, ijtimoiy-siyosiy, ba'zilar esa ekologiyaga bog'liqdir. Texnologiya, ayniqsa, axborot va kommunikatsion texnologiyalari bu innovatsiya o'zgarishlarida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Kompyuter tizimlaridagi ijobiy o'zgarishlar tibbiyot, harbiy kuchlar, global miqyosda axborotlarni to'plash va tarqatish, zamonaviy korxonalarni boshqarishda ham o'z aksini topdi. Kompyuter tarkibiy qismlari va dasturlarining doimiy rivojlanishi korxonalar faoliyatining tubdan o'zgarishiga yo'l ochib berdi: innovatsiya mahsuloti va xizmati turlari vujudga keldi, yangi sanoat tarmoqlari paydo bo'ldi, eski korxonalar va yo'nalishlar yo'q bo'lib ketdi. Qayd etilgan o'zgarishlar bilan bir qatorda texnologiyalar ham iarkib va sifat jihatdan muntazam o'zgarib bormoqda.



Bugungi jamiyatning faol qatnashchisi bo'lish uchun siz innovatsiya o'zgarishlaridan ogoh bo'lishingiz va qatnashishingiz talab etiladi. Shaxsiy hayotingizda ham, jamiyat bilan munosabatlarda ham yangi yo'llardan foydalashingiz lozim bo'ladi. Lekin, shu bilan birga, axborot texnologiyalari yangi turdagi ish faoliyatlari va kasbiy malakani oshirish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda texnologiyalarga oid o'zgarishlar har daqiqa va soniyada vujudga kelmoqda. Bu o'zgarishlardan foydalanish uchun biz ularni tushunishimiz va qabul qilishimiz lozim. Shu maqsadda biz axborot texnologiyasini innovatsiya menejmentidagi rolini aniqlash uchun rasmiy ta'rifda emas, balki sodda qilib tushuntirishga xarakat qilamiz.

METODOLOGIYA

Axborot texnologiyasining innovatsiya jarayonlariga ta'sirini yanada yaxshiroq tushunishdan avval bugungi kundagi korxonalar va shaxsiy faoliyatlarni ko'rib chiqaylik. Bir shaxsning katta korxonada o'rta meydagi menejer sifatida ishlashi mumkin bo'lgan kunlar o'tib ketdi. Korxonalarda endi faqat xodimlarni boshqarib axborotni yuqoriga yetkazib berish bilangina shug'ullanadigan shaxslarga ish qolmadi. Aslida ko'p korxonalar yaxshi tashkil etilgan tashkiliy tarkibga ehtiyojini yo'qotdi, chunki ular uzluksiz ravishda tashkiliy kommunikatsiya orqali bog'langan. Yuqori darajadagi raqobat korxonalarini imkoni boricha daromadliroq ishlashga da'vat etmoqda. Raqobatchingiz siz chiqaradigan mahsulotni xuddi o'zini chiqarib 20% arzon narxda sotsa, siz ham narxlarni tushirishga majbur bo'lasiz va xaridorlaringizning ko'ngliga qaraysiz, bo'lmasa, biznesingiz sinadi va to'xtaydi. Bir yil juda tez rivojlangan korxonalar ikkinchi yil yo'q bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun ko'proq ishga qabul qilish qarorlari juda puxta o'ylab qilinishi lozim, chunki ishchi kuchi juda qimmatli vosita hisoblanadi. Ko'p korxonalar mahsulot narxini tushirish maqsadida juda ko'p ishchilarni va boshqaruv pog'onalarini kamaytirishga majbur bo'lgan. "Kseroks Dokument" kompaniyasi 1985–1995-yillar davomida 125000 dan 90000 gacha xodimlar sonini kamaytirishga majbur bo'lgan, xuddi shu davr mobaynida "IBM" xodimlari soni 400000 dan 200000 ga tushdi. "AT&T", "Delta Airlines", "American Express", "Allied Signal" va boshqa bir qator kompaniyalar ham o'z ishchilar sonini kamaytirdi, qolganlar o'z faoliyatini yanada yaxshilashga erishdilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo'sh, kompaniyalar qanday qilib bunday samaradorlikka erishgan? Ko'p holatlarda bunga doimiy ravishda ta'sir etuvchi quyidagi ikki omilni atroflicha puxta o'rganish asosida aniq tadbirlar amalga oshirilgan:

- Ishchilarning mas'uliyat darajasini oshirish.
- Ishchilarga zarur bo'ladigan axborotlarni yetkazib berishda qo'llanadigan axborot texnologiyasining infratuzilmasini takomillashtirish orqali erishilgan.

Axborot tizimlar infratuzilmasi bu kompyuterlar, tizimlar, dasturlar va ma'lumot bazalari birlashmasi bo'lib, ular ma'lumotlarni qayta ishlash va tarqatishda foydalaniladi. Axborot tizimlari ishchilar o'z vazifasini bajarishi uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlarni yetkazib berishda katta rol o'ynaydi.

Axborot texnologiya bizning vaqt va makon tushunchalarimizni ham o'zgartirib yubordi. Biznes kelishuvlar bugunda "yuzma-yuz" makonda (muhitda), birinchi biznes-xamkor Yaponiyada, ikkinchisi Germaniyada bo'lsa ham amalga oshirilmoqda.

Tashkiliy javobgarlik va axborot texnologiyasi. "Pan Amerikan Eyrlayns", "Amerikan Motors", "Sobiq ittifoq" va "Osborn Kompyuters"larning qanday o'xshashliklari bor. Ular barchasi yo'q bo'lib ketdi. Nima uchun? Ularning hech biri o'zlari yashab turgan muhitga moslasha olmadi. Bizning o'zgarishlarga bo'lgan qarashlarimizdan shuni aniqlash mumkinki, o'zgarishlar doimo va har zamon mavjuddir. Tabiiy muhit, xaridor didi, texnologiya, qoidalar, ijtimoiy meyorlar va hokazolar doimiy o'zgarishda bo'ladi. Shuning uchun ularga moslashish yashab qolishning asosiy qoidasidir.

Tashkiliy javobgarlik korxonani nafaqat muhitga moslashishi, balki bo'lgan o'zgarishlarga nisbatan biron-bir tashkiliy xatti-harakatni bajarishni bildiradi.

Ayrim korxonalar axborot texnologiyasidan doimiy ravishda foydalanib, raqobatchilar, davlat muassasalari va boshqa tashqi omillar ta'sirida vujudga kelgan o'zgarishlardan xabardor bo'lish uchun foydalanadi. Bunda asosiy tamoyillardan biri bu tashqi muhitni doimiy ravishda kuzatishdir. Shunga ko'ra o'zgarishlarga mos faoliyat ko'rsatilsa, korxonani yashab qolish imkoniyatlari oshadi.

Raqobat strategiyasi va axborot texnologiyasi. Tadbirkorlikning (bozorning) tamoyillariga ko'ra xaridor cheklangan zaxiraga ega va ular nima sotib olish kerakligi haqida o'zlari qaror qabul qiladi. Monopoliyalarning miqdori kamayib va bir turdagi mahsulotni bir nechta kompaniyalar bozorga taqdim qilar ekan, korxonalar xaridorlarni o'z mahsulotini sotib olishga undashi lozim. Iqtisodiyotning globallashuvi va xaridorlar butun dunyodan mahsulot sotib olishi imkoniyatiga ega bo'lishi raqobatni juda ham yuqori darajaga ko'tarib yubordi. Raqobat faqatgina sanoat korxonalarida emas, balki noishlab-chiqarish tashkilotlari orasida ham mavjud. Masalan, institutlar bilimli talabalar uchun davlat tashkilotlari budjetidan ko'proq ajratmalar olish uchun raqobatlashadi.



Korxonalar raqobatida ikki tahdid mavjud. Bu shunda bilinadiki, yangi texnologiya korxonalar mahsulotini keraksiz qilib qo'yadi yoki unga bo'lgan talabni tushirib yuboradi. Masalan, telegraf otlarda xat tashishdan foydalanishni kamaytirdi. Elektron pochta esa faksning o'rnini bosib kelayotganini ko'rish mumkin.

Ikkinchi tahdid bu raqobatbardoshlikni yo'qotish va bozordan chiqib ketishdir. Korxonaning istiqboli uning dastlabki mahsulot va xizmatlariga bog'liq. Chunki korxonalar dastlab mahsulot ishlab chiqarib uni sotadi va undan kelib tushgan daromadga o'z istiqbolini belgilaydi.

Raqobatning tahlilidan shuni bilish mumkinki, raqobatda g'olib chiqish uchun xaridor talabini qondirish asosiy maqsad bo'lishi kerak.

Raqobat strategiyasi. Bu korxonani raqobat muhitida tutgan faoliyat turidir. Eng taniqli raqobat strategiyasining namoyandalaridan biri bu Maykl Porterdir. Uning ta'kidlashicha, 1970-yillar oxiri va 1980-yillar boshida korxonalar quyidagi strategiyalarni qo'llashi mumkin edi:

- Past narxda mahsulot ishlab-chiqarish.
- Yangi mahsulot va xizmatlar turlarini ko'paytirish.
- Bozorning kattaroq qismini egallash.

Korxonalar boshqarish nazariyalari o'zgargani kabi tashkiliy strategiyalar ham o'zgaradi. Ayrim korxonalar sifatli mahsulotni past narxda sotishga qoniqmaydi: shuning uchun ular mahsus xaridor talabiga mos, ya'ni buyurtma bo'yicha mahsulotlar ishlab-chiqarishga kirishadilar. Buyurtma asosida ishlash mahsulotni xuddi xaridorga kerak bo'ladigan tuzilishda va shaklda yaratishdir, vaholanki ko'p korxonalar xaridorni allaqachon yaratilib bo'lingan mahsulotdan tanlashga majbur qiladilar.

Misol uchun mashina sotib olishni olaylik. Agar sizga biron bir tez yuradigan kerak bo'lsa, bozorga borib dilerdan o'zingizga yoqqanini sotib olishingiz mumkin, agar u sizga yoqadigan mashina topolmasa (notabiiy rangli, kuchli motorli), u holda siz uni zavoddan mahsus buyurtma qilishingiz mumkin. Lekin bu bir oz vaqt talab qiladi. Juda ko'p katta avtomobil kompaniyalari standart bo'lgan ko'p miqdordagi avtomobillarni ishlab chiqaradi. Mahsus avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaga misol qilib "General motors" kompaniyasining "Saturn" bo'limini olish mumkin. U orqali buyurtma berilgan mashina 3 hafta ichida istalgandek tayyorlab beriladi.

"GM Uzbekiston" QK ham bu yo'nalishda ishlashga kirishi kerak, qachongacha chet el avtomobillari raqobatidan bojxona to'lovlarini oshirish orqali saqlanish mumkin.

Qanday qilib "Saturn" va boshqalar bunga erishmoqda? Albatta, bunda IT (axborot texnologiyasi)ning katta o'rnini bor. Chunki xaridordan buyurtma kelishi bilan, u kerakli ma'lumotlar bazasiga kiritilib, ishlab-chiqarish jarayoniga to'g'ridan to'g'ri jo'natiladi. Shu bilan birga IT to'lov turiga ham ta'sir ko'rsatadi (masalan VISA yoki Master Card nomeri, hisob raqami egasi, xaridor balansidan cheklanishlar va h.k.). IT xaridor talabini aniqlashda va o'zgartirishlarni tezkor amalga oshirishda yordam beradi. IT korxonalar ichki operatsiyalarini bajarishda, narxlarni tushirishda va qaror qabul qilishda qo'l keladi. Qisqacha aytganda, IT dan juda ko'p hollarda foydalanish mumkin.

Lekin korxonalarining barchasi ham IT dan foyda ko'rayotgani yo'q. Ko'p hollarda IT ning noto'g'ri ishlashi va buzilishi kuzatilmoqda. IT rivojlangan sari korxonalar unga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Xalqaro aloqalar va IT. Siz Xitoy yoki Argentinani o'zingiz yashab turgan dunyoning bir qismi sifatida tasavvur qila olasizmi? IT ko'pchilik shaxslar va kompaniyalarning dunyodagi o'rnining o'zgarishiga olib keldi. Ba'zi korxonalar nafaqat mahalliy raqobatchilar bilan, balki xalqaro miqyosidagilar bilan ham bellashayotgani sir emas. Yana shunday kompaniyalar paydo bo'ldiki, ularning aniq bir mamlakatda "bosh ofisi" yo'q bo'lib, ularni maxsus milliy qarashlar va daromad olish imkoniyatlari birlashtirib turadi.

Biz korxonalarining tashqi muhitni o'rganishi lozimligini ta'kidlar ekanmiz, ular nazarini mahalliydan xalqaro miqyosga o'zgarishini ham aytib o'tishimiz lozim.

Bugungi kunda ayrim rivojlanayotgan davlatlar rivojlangan davlatlardan o'tishga xarakat qilib, IT va kommunikatsiyalarga katta xarajatlar qilmoqda. Rivojlangan davlatlar, masalan, AQShda barcha mis simlarni yangi optik tolali simlarga almashtirish juda murakkab va ko'p vaqt talab qiladi. Rivojlanayotgan, cheklangan telefon tarmoqlariga ega bo'lgan davlat uchun esa bu uncha qiyin ish emas. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham keyingi davlatlar qatoriga kiradi.

Axborot texnologiya va etika. IT qo'llanilishi natijasida ayrim shaxslar o'zlarini kompyuterlashgan kuzatuv obyekti sifatida o'ylashga majbur bo'lmoqda. Fizik joylashuvni aniqlovchi, elektron pochta kuzatib turuvchi tizimlar borgan sari ommaviylashib bormoqda. Bu tizimlar turli noroziliklarni keltirmoqda (masalan: shaxsiy mulk va huquqlarning buzilishi).

ITning yangi imkoniyatlari (masalan: ishchilar kompyuteridagi o'yinlarni o'chirib tashlash yoki sotib olingan filmlar ro'yxatini saqlash) mavjud bo'lgan qonunlarni va ijtimoiy huquqlarni kamsitmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yangi qonun-qoidalarning ishlab chiqilishi kerakligini ko'rsatmoqda.

ITning etikani buzayotganligini yana shunda ko'rish mumkinki, bu intellektual mulkni himoya qilishda uning juda ko'p kamchiliklari mavjudligidir. Kompyuter dasturlari juda osonlikcha ko'chirib olinishi mumkin. Shu tufayli Xitoyda 90%ga yaqin dasturlar noqonuniy tarzda ko'chirib olingan. O'zbekiston ham bundan mustasno emas. 1-jadvalda ko'rib chiqilgan ITning innovatsion menejmentdagi umumiy mohiyati ko'rsatilgan.



Shunga ko'ra ko'pchiligimiz axloqiy jihatdan to'g'ri qaror qabul qilishimiz kerakligini aytib o'tishimiz lozim. AT imkoniyatlari oshgan sayin, bu masalalarga ko'proq duch kelinmoqda. Bizning maqsad ham xuddi shu axloqiy qoidalarga rioya qilishlikni ta'kidlashdir.

1-jadval: Axborot texnologiyalaning innovatsion menejmentdagi asosiy mazmuni¹

Mazmun	Axborot texnologiyaning munosabati
Tashkiliy javobgarlik va o'zgarishlarga tayyor turish	Tashkilot hamelionga o'xshab tashqi muhit o'zgarishlariga moslashishi kerak. Axborot texnologiya mavjud o'zgarishlarga turli hollarda moslashishni yengillashtiradi.
Raqobat strategiyasi	Raqobattashkilot faoliyatidagi mavjud voqelikdir. Ko'pchilik harajatlarni kamaytirish, turli mahsulot va xizmatlar taklif qilish strategiyasini qo'llab, bozorda ustunlikka erishadi. IT vositalari samarali va doimo ishlatilishi natijasida tashkilot strategiyasi amalga oshiriladi.
Xalqaro munosabatlar	Axborot va kommunikatsion texnologiyalar bozor integrasiyasini osonlashtiradi. Yetkazib beruvchi xaridor, va raqobatchilar o'rtasidagi tashkiliy va xalqaro chegaralarni kichraytiradi.
Etik muammolar	IT imkoniyatlari etik bezovtalanishlar hosil qilib, mavjud qonun va jamiyat meyorlarini o'zgartiradi. Masalan, shaxsiy sirni saqlash qiyinligi, shaxsiy intellektual mulklarning o'g'irlanishi.

Zamonaviy korxonalarini boshqarish. Hozirgi zamon korxonalarini boshqarishning ko'rinishi qanday? Menejment iborasi korxonaning tirik va faoliyat ko'rsatuvchi shaklda saqlanishini anglatadi. Umuman olganda, korxonalar boshqaruvsiz, o'zidan-o'zi faoliyat ko'rsata olmaydi. Bundan tashqari, korxonalar bu bir maqsad yo'lida bir qancha shaxslardan tashkil topadi. Innovatsion menejment bir qator taktik va strategik maqsadlarni ko'zlab, yangilikka intiluvchi shaxslarni birlashtirib ish yuritishdir. Innovatsiya to'g'risida boshqaruvning bir nechta nazariyalari mavjud va ular tez o'z mohiyatini o'zgartirmoqda². Shu bilan birga, innovatsiya menejmentining tendensiyalari mavjud bo'lib, ulardan birinchisi bu – iyerarxik tuzilmadan jarayonlashtirilgan tuzilmalarga o'tishdir. Buni yana vazifaga asoslangan menejment, deb ham yuritiladi. Odatda tashkiliy tuzilma funksional irearxiya bo'lib, unda bir nechta malakali va mas'uliyat yuklangan shaxslar guruhlariga bo'lingan. Masalan, marketologlar guruhi, marketing bo'limi boshlig'iga, u o'z navbatida, marketing bo'yicha direktor o'rinbosariga va h.k. axborot beradilar.

Vazifaga asoslangan menejmentda korxonalar turli kasbdagi shaxslarni bir ishchi guruhga birlashtiradi. Bu ishchi guruh bir yoki bir nechta asosiy faoliyatlarga javobgar qilib belgilanadi. Boshqa guruhlar bir vazifani bajarish uchun birlashtirilib, so'ng yana bo'linishi mumkin. Bu bir qator kamchiliklarga ega bo'lsada, lekin bitta yutug'i bir nechta turli sohadagi malakali ishchilardan, odatiy kommunikativ qiyinchiliklarsiz foydalana olishdir.

Faoliyatni yanada yaxshilash uchun bugungi menejment falsafasi butun korxonani 6-8 kishidan iborat bo'lgan bir nechta guruhga bo'lishni tavsiya etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar bundan ko'proq kishi bo'lsa, guruh yaxshi ishlay olmaydi. Chunki guruh kattalashgan sari guruh a'zolari ko'p vaqtini bahslashishga sarflaydi, ishga esa kam vaqt qoladi. Agar vazifa ko'p kishilik guruhni talab qilsa, bu guruhga ham bir qancha vazifalar yuklatilib, guruhlariga ajratish mumkin. Eng yirik shaxsiy kompyuterlar uchun dastur ishlab chiqaruvchi "Microsoft" kompaniyasi ham xuddi shu usulni qo'llab ish yuritmoqda.

Ikkinchi tendensiya bu eng yangi o'zgarish bo'lib, u xaridor talabini qondirishga asoslangan biznes strategiyasidir. Tarixan ko'p tashkilotlar bir mahsulot ishlab chiqarib, so'ng uni marketing va sotish texnikalaridan foydalanib, iloji boricha ko'p xaridorlarga sotishga intiladilar. Albatta o'sha vaqtda ham xaridorni maqsad markazi deb bilgan korxonalar ham bo'lgan, xuddi shular asosida hozir ko'p tashkilotlar xaridor orqali boshqariluvchi hisoblanadi. Bu tendensiya bozor klassik falsafasining aksini bildiradi: avval sizning xaridoringiz kim va unga nima kerakligini aniqlash, so'ng imkon boricha eng sifatli, eng arzon va tez vaqt orasida unga kerak bo'lgan mahsulot ishlab-chiqarishdir.

Ayrim korxonalar eng qiyin xaridorni aniqlab, uning talabini qondirish strategiyasini taklif etishadi. Maqsad shuki, agar siz eng qiyin xaridorni ehtiyojini qondira olsangiz, qolgan xaridorlarning ehtiyojini qondirish oson kechadi.

Uchinchi menejment tendensiyasi bu tashkilotlararo (asosan xaridorlar, ta'minotchilar va xatto raqobatchilar) faoliyatini birlashtirishdir va bu hamkorlikda faoliyat, deb yuritiladi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki tashkilot ichki aloqalari kabi tashqi aloqalari ham juda muhimdir. Ammo korxonalar ayrim bozorlarda hamkorlik qilsa, ikkinchi bozorda raqobatlashishi ham mumkin.

To'rtinchi va oxirgi tendensiya bu ma'lumotlarni tashkilotlararo tez va keng miqyosda yetkazishdir. Bu odatiy holatlarga teskari bo'lib, axborotlarni to'plab so'ng tarqatishdan ko'ra, axborotlarni bevosita tezkor ravishda yetkazish ijobiy natija berishini ko'rsatadi.

1 Muallif tadqiqoti asosida tuzilgan.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6198 sonli Farmoni.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni ytish mumkinki, Axborot texnologiya jamiyatda keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda. Axborot texnologiya insonlarning aloqa qilish, ta'lim olish, ishlash jarayonlariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. U yana bizning dam olish, bozor qilish (xarid qilish) usullarimizni o'zgartirmoqda. Bu ayniqsa, innovatsion biznes sohasiga juda ko'p imkoniyatlar yaratmoqda. Lekin axborot texnologiya imkoniyatlari oshgan sari, u bir qator etik qarshiliklarga uchramoqda. Global va xalqaro miqyosda, geografik va vaqt masofalari tobora muhimsizlashib bormoqda.

Korxonalarni boshqarish falsafasi ham o'zgarmoqda. Ko'p istiqbolni ko'zlovchi menejerlar ishchilarni bir yoki bir nechta guruhga bo'lib, vazifa atrofiga to'plab ish yuritmoqda.

Korxonalar juda kuchli raqobat muhitida faoliyat yuritmoqda va eng muhim maqsad raqobatbardosh bo'lishdir. Buning uchta usuli mavjud. Eng kam narx qo'yish, mahsulot turini ko'paytirish, bozorni egallash. Ayrim korxonalar bu uchala usulni qo'llab ko'rmoqchi bo'ldi, lekin bu kutilgan natijani bermadi.

Uzoq davr ishlash va o'sish doimo xaridorning barcha talablarini qondirishni talab qiladi. Axborot texnologiya korxonada ichki faoliyatida katta ahamiyat kasb etib, o'zgarishlarga tez javob berish va xaridor talabini qondirishga juda qo'l keladi. Axborot texnologiyani qo'llash natijasida olinadigan foyda juda kattadir. Lekin bu imkoniyatlardan foydalanishda avval uning shaxslarga, korxonalariga va jamiyatga ta'siri natijasida yuz beradigan o'zgarishlarni anglash lozim. Korxonalar axborot texnologiyaga qanchalik bog'liq bo'lib qolsa, ular shunchalik uning xatolari, buzilishlaridan ko'p zarar ko'radilar. Har qanday kuchli vosita kabi axborot texnologiyadan ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim. Axborot texnologiya samarali ishlashi uchun vaqt, mablag' zarur va innovatsion boshqaruvning eng asosiy vositasi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Husseini, S., El Beltagi, I., & Moizer, J. (2019). Transformational leadership and innovation: the mediating role of knowledge sharing amongst higher education faculty. *International Journal of Leadership in Education*, 1-24.
2. Alonderiene, R., & Majauskaite, M. (2016). Leadership style and job satisfaction in higher education institutions. *International Journal of Educational Management*, 30, 140-164.
3. To'ychiyeva N. Elektron Ta'lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollor. –2022. –T. 1. –No. 1. –C. 40-41.
4. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollor. –2022. –T. 1. –No. 1. –C. 29-31.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.